

## TASVIR VA IFODA VOSITALARINING BADIY TARJIMADA BERILISHI (Umar Sayfiddin “Qizil olma qayerda?” hikoyasi misolida)

**Tojiyeva Afro‘za**

Tel: +998946674556; Email:

*TDSHU stajyor-o‘qituvchisi*

tojiyevaa07029@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Umar Sayfiddinning “Qizil olma qayerda?” hikoyasidagi badiiy tasvir va ifoda vositalarining o‘zbek tiliga qilingan tarjimasidagi o‘rnini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada badiiy tasvir va ifoda vositalarining turlari hamda ularning adabiy asardagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ular badiiy matnda butunlikni tashkil etishi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni yanada bo‘rttirib ko‘rsatishda muhim vosita bo‘lishi ta’kidlangan. Tadqiqot obyekti sifatida asarning asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasi qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil davomida “o‘xshatish”, “jonlantirish” va “yopiq o‘xshatish” (istiora) kabi san’atlarning tarjimada qay darajada saqlangani aniqlangan. Maqola, tarjimada so‘zlarning emas, balki ma’no va badiiy ta’sirning ustuvor ekanligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, “Qizil olma” iborasining hikoyada ramziy ma’no kasb etishi, turli shaxslar uchun turlicha talqin qilinishi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotning xulosasi, tarjimaning yuqori badiiy saviyada ekanligidan dalolat beradi va asl asar ruhini to‘laqonli aks ettirganligini isbotlaydi.

**Kalit so‘zlari:** Umar Sayfiddin, badiiy tasvir vositalari, badiiy tarjima, o‘xshatish, istiora, kinoya, metafora.

### Kirish.

San’atning qadimiy sahifalarida, inson qalbi va tafakkurining eng nozik qirralarini ifodalashga bo‘lgan cheksiz intilish yotadi. Bu intilish asrlar davomida so‘zning sehridan foydalangan holda, voqelikni shunchaki tasvirlashdan ko‘ra ko‘proq ma’no kasb etuvchi usullar yaratgan. Adabiyotning o‘ziga xosligi va qudrati aynan badiiy tasvir va ifoda vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Bu vositalar nafaqat hikoyani rivojlantirishga, balki o‘quvchining tasavvurini jonlantirishga, uning his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazishga va asarning mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Badiiy asar faqatgina quruq voqealardan iborat emas, balki jonli manzaralar, chuqur ma’noli belgilar va qudratli ifodalarning o‘zaro uyg‘unligidir. Muallifning yozgan har bir so‘zi, tanlagan har bir jumlasini, qahramonning bir qarashi yoki tabiatning bir tasviri ortida katta bir olam yashirin bo‘ladi. Aynan shu olamni kashf etish, adabiyotshunoslikning eng muhim vazifalaridan biridir. Badiiy tasvir va ifoda vositalari, masalan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish (tashbeh),

mubolag'a, istiora, jonlantirish (tashxis) kabi usullar, yozuvchiga oddiy so'zlarga yangi ruh va ma'no berish imkonini beradi. Ular asarga estetik qiymat bag'ishlabgina qolmay, balki o'quvchining tahliliy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Bu vositalar shunchaki bezak emas, balki asarning mafkuraviy asosini tashkil etuvchi jiddiy elementlardir. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi ayrim tasvirlar, faqatgina voqeani emas, balki butun bir davrning ijtimoiy-siyosiy ahvolini ifodalaydi. Yoki, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi har bir detallar, qahramonlarning ichki dunyosini, o'sha davr odamlarining turmush tarzini yorqin aks ettiradi. Badiiy asarni tahlil qilish, aynan shu vositalarni aniqlash, ularning funksional vazifasini tushunish va asar matniga qanday ta'sir ko'rsatganini baholashdan iboratdir. Shu sababli, badiiy tasvir va ifoda vositalari nafaqat ijodkor uchun muhim qurol, balki asar tahlilchisi va o'quvchi uchun ham tahliliy kalit hisoblanadi.

Ushbu maqolada, biz adabiyotning ushbu asosiy qurilish elementlarini chuqur o'rganamiz. Har bir vositaning nazariy asoslari, adabiy asarlardan olingan yorqin misollar va ularning asar matniga kiritgan ma'no-vazifalarini tahlil qilamiz. Maqolamizning maqsadi, nafaqat bu vositalarning nima ekanligini tushuntirish, balki ularning adabiy matnning qudrati va chuqurligini qanday yaratishini ko'rsatishdan iborat. Bu mavzu bo'yicha olib borilgan tahlillar, adabiyotga bo'lgan munosabatimizni tubdan o'zgartirib, har bir so'zning ortidagi katta san'atni ko'rishga yordam beradi. Ma'lumki, "badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalari" goh tasviriy vositalar va ifodaviy vositalar sifatida alohida-alohida, goh badiiy tasvir va ifoda vositalari deb birgalikda yuritiladi.<sup>1</sup>

Tasvir vositalariga jonlashtirish, sifatlash, o'xshatish, istiora, mubolag'a, litota, allegoriya, sarkazm, ironiya, obrazli parallelizm, ramziy obraz, allegorik obraz kabilar kirs, ifoda vositalariga turli takrorlar, ritorik so'roq va murojaatlar, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, ramz, majoz, alliterasiya, assonans, ellipsis, inversiya, arxaizm, dialektizmlar kiradi deb ajratiladi<sup>2</sup>

Aslida ularni bunday ajratish uncha to'g'ri emas. Chunki ular badiiy matnda, asar mazmuniga bog'liq holda birgalikda "muayyan badiiy vazifani bajaradi, tasvirlanayotgan voqea-hodisani va unga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib va umumlashtirib ko'rsatishda muhim vosita bo'ladi"<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: "Akademnashr", 2010. 51-бет.

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг: Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1983. 78; 133–134-бетлар; Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: "Akademnashr", 2010. 51–52-бетлар.

<sup>3</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1983. 78-бет.

**Maqsad va vazifalar:** Umar Sayfiddin “Qizil olma qayerda?” asaridagi badiiy tasvir vositalarini aniqlash, aniqlangan badiiy tasvir va ifoda vositalarini turlarga ajratish, aniqlangan tasvir va ifoda vositalarini tarjimada qay darajada jo‘rsatib berganligini aniqlash bu maqolaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

**Usullar:** Umar Sayfiddin “Qizil olma qayerda?” asarining asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

**Tadqiqot manbasi:** Umar Sayfiddin “Qizil olma qayerda?” asari mu maqolaning tadqiqot manbaasi hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti:** Tadqiqotning obyekti sifatida Umar Sayfiddin “Qizil olma qayerda?” asaridagi tasvir va ifoda vositalari va uning tarjimada kas etishi hisoblanadi. Ya’ni tarjimada asl nusxadagi tasvir va ifoda vositalari qay darajada berilganligi o‘rganib chiqiladi.

### **Natija va mulohazalar:**

Zamanın Süleyman’ı ansızın... kükremiş bir tufan halinde akseden bu naraları duydu<sup>4</sup>.

O‘z davrining Sulaymoni kutilmaganda hayqirgan to‘fondek aks sado bergan bu na’ralarni eshitdi<sup>5</sup>.

“Zamanın Süleyman’ı ansızın... kükremiş bir tufan halinde akseden bu naraları duydu” jumlası o‘zbek tiliga “O‘z davrining Sulaymoni kutilmaganda hayqirgan to‘fondek aks sado bergan bu na’ralarni eshitdi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada, asl matndagi “o‘xshatish” va “jonlantirish” san’atlari to‘liq saqlangan. Turkcha “kükremiş bir tufan” iborasi o‘zbekchaga “hayqirgan to‘fondek” deb ayni mohiyat bilan o‘girilgan, bu esa askarlar narasining shiddatini va dahshatini tabiat kuchi bilan taqqoslash orqali badiiy ta’sirni kuchaytirgan. “Halinde” so‘zi “dek” qo‘shimchasi bilan, “akseden” so‘zi esa “aks sado bergan” birikmasi bilan aniq ifodalangan. Tarjima so‘zma-so‘z bo‘lsa-da, matndagi badiiy va hissiy qatlamni muvaffaqiyatli yetkazgani uchun yuqori bahoga loyiqdir.

Otağın biraz uzağında... küçük meşe ormanının sonundaki mahşerde, deminki divanın sevinci, büyük bir heyecan ummanı gibi kaynıyor, kabarıyor<sup>6</sup>,

Xonadan sal uzoqda, kichik eman o‘rmonining oxiridagi mahsharda devonning biroz avvalgi sevinchi kata hayajon ummoni kabi to‘lib-toshmoqda edi<sup>7</sup>,

“Otağın biraz uzağında... deminki divanın sevinci, büyük bir heyecan ummanı gibi kaynıyor, kabarıyor” jumlası o‘zbek tiliga “Xonadan sal uzoqda... devonning biroz avvalgi sevinchi kata hayajon ummoni kabi to‘lib-toshmoqda edi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada turk tilidagi matnda mavjud bo‘lgan “o‘xshatish” san’ati to‘liq saqlangan. Asl matndagi “sevinch”ning “katta hayajon ummoni”ga o‘xshatilishi, his-

<sup>4</sup> Ömer seyfittin dizisi 2. Üçüncü basım. İstanbul, aralık 2009. 19-s.

<sup>5</sup> Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 120.

<sup>6</sup> Ömer seyfittin dizisi 2. Üçüncü basım. İstanbul, aralık 2009. 20-s.

<sup>7</sup> Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 121.

tuygʻularning oddiy emas, balki cheksiz va kuchli ekanini koʻrsatadi. Tarjimada “gibi” soʻzi “kabi” deb oʻgirilgani holda, “kaynıyor, kabarıyor” (qaynamoqda, koʻpirmoqda) feʼllari oʻrniga oʻzbek tilida aynan shu holatni ifodalovchi “toʻlib-toshmoqda” iborasining ishlatilishi katta mahoratdir. Bu bilan tarjimon nafaqat soʻzlarni, balki ularning bergan maʼno va hissiyotini ham toʻgʻri yetkazgan. Natijada, ushbu tarjima badiiy jihatdan original matnning kuchini va taʼsirini toʻlaqonli aks ettirgan.

“Kızılma’ya...”

Naralarıyla, sanki hayalın eremeyeceği derecede yüksek, pek yüksek bir arşa doğru... kalkanlardan kanatlarıyla uçmaya hazırlanıyorlardı!<sup>8</sup>

“Qizil olmaga...” naʼralari bilan goʻyo hayoli ham yetib borolmaydigan oʻta baland, yuksak arshga qarab qalqonlaridan boʻlgan qanotlari bilan uchushga tayyorlanar edilar<sup>9</sup>.

“Naralarıyla, sanki hayalın eremeyeceği derecede yüksek, pek yüksek bir arşa doğru... kalkanlardan kanatlarıyla uçmaya hazırlanıyorlardı!” jumlası oʻzbek tiliga «naʼralari bilan goʻyo hayoli ham yetib borolmaydigan oʻta baland, yuksak arshga qarab qalqonlaridan boʻlgan qanotlari bilan uchushga tayyorlanar edilar» deb tarjima qilingan. Ushbu tarjimada turk tilidagi matnda qoʻllanilgan yopiq oʻxshatish sanʼati toʻliq saqlangan. Asl matndagi “kalkanlardan kanatlarıyla” (qalqonlardan qanotlari bilan) iborasi, askarlarning qalqonlarini oddiygina himoya vositasi emas, balki ularni yuksak maqsadga uchiruvchi qanotlar sifatida tasvirlagan. Tarjimon bu iborani “qalqonlaridan boʻlgan qanotlari bilan” deb soʻzma-soʻz tarjima qilib, askarlarning jismoniy harakatidan koʻra, ularning maʼnaviy kuchini va joʻshqin ruhini mukammal ifodalagan. Bu tasvir orqali askarlar faqatgina jangchi emas, balki ilohiy maqsad sari intiluvchi, gʻayritabiiy kuchga ega qahramonlar kabi tasvirlangan. Natijada, tarjima nafaqat soʻzlarni, balki matnning badiiy ruhini ham toʻlaqonli yetkazib bergan.

“Qizil olma” bu bir sembol hisoblanadi. Birdan koʻp maʼnolarni ifodalab kelishi mumkin. Ayni shu hikoyada bu taʼbir xalq orasida fath qilinishi kerak boʻlgan, uzoqda joylashgan, muqaddas bir oʻlka hisoblanadi. Vazirlar va olimlar uchun geografik joy masalan: Rim, Xitoy kabi yerlar maʼnosini bildiradi. Yana boshqa bir maʼnosi podshohning hukm surgan yerlari hisoblanadi. Podshoh uchun esa bu umuman boshqa maʼnoni anglatadi.

**Xulosa:** Umar Sayfiddinning “Qizil olma” hikoyasidan olingan parchalar tahlili shuni koʻrsatadiki, badiiy asar tarjimasining muvaffaqiyati faqat soʻzlarning almashtirilishida emas, balki yozuvchining uslubi va ruhiyatining yangi tilga koʻchirilishida namoyon boʻladi. Koʻrib chiqilgan misollarda, tarjimon oʻzbek tilidagi ijodiy mahoratini namoyish etgan. U nafaqat oʻxshatish va jonlantirish kabi oddiy sanʼatlarni, balki yopiq oʻxshatish kabi murakkab badiiy vositalarni ham aniq yetkazib

<sup>8</sup>Oʻsha asar. 29-s.

<sup>9</sup>Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 127.

bergan.

Tarjimada soʻzma-soʻz yondashuvdan koʻra, maʼnoga va badiiy taʼsirga yoʻnaltirilgan uslub ustunlik qilgan. Bu, tarjimaning yuqori badiiy saviyada ekanligidan dalolat beradi va asl asarning taʼsir kuchini toʻliq aks ettiradi. “Qizil olma” tushunchasining oʻzi ham faqat geografik joy emas, balki har bir insonning qalbida yashaydigan, uni harakatga keltiradigan ulugʻ bir ideal ekanligini anglash, ushbu tarjimalarning muvaffaqiyatli ekanligini isbotlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Salomov Gʻ. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (oʻquv qoʻllanma). – T.: 2014. 272 b
3. Hamidov X. Oʻzbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent:2019. – 128 b.
4. Hamidov X. Oʻbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – Toshkent:ToshDSHI, 2014. – 148 b.
5. Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012.
6. Ömer seyfittin dizisi 2. Üçüncü basım. İstanbul, aralık 2009.
7. Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Akademnashr”, 2010. 51–52-бетлар.
8. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983.